

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SHAYMANOVA NIGORA YUSUPOVNA

**O‘ZBEKISTONDA REKREATSIYA TURIZMINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
In economic sciences**

Shaymanova Nigora Yusupovna

О‘zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida)3

Шайманова Нигора Юсуповна

Перспективы развития рекреационного туризма в Узбекистане (на примере Кашкадарьинской области)31

Shaymanova Nigora Yusupovna

Prospects for the development of recreational tourism in Uzbekistan (in the case of Kashkadarya region)61

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....66

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SHAYMANOVA NIGORA YUSUPOVNA

**O‘ZBEKISTONDA REKREATSIYA TURIZMINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt3159 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Amonboyev Muhammadsidik**
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar: **Axmedov Ikrom Akromovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Astanakulov Olim Toshtemirovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "5" 09 kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, Faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1742 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, Faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «20» 08 kuni tarqatildi.

(2025-yil «20» 08 dagi 66 -raqamli reestr bayonnomasi.



S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.V. G'afurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

A.A. Eshtayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida rekreatsiya turizmini rivojlantirish nafaqat yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishiga, balki mehnat bozorida yangi ish o'rinlarini yaratish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, tabiiy va madaniy resurslardan samarali foydalanish orqali hududiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Rekreatsion turizm – ya'ni dam olish va sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan sayohat shakli – nafaqat inson salomatligini tiklash va psixologik reabilitatsiyani ta'minlash, balki iqtisodiy jihatdan yuqori rentabellikka ega faoliyat turi sifatida ham ko'zga tashlanmoqda. "Rivojlangan davlatlar tajribasiga nazar tashlansa, bu mamlakatlarda turizm, xususan, rekreatsiya turizmining barqaror rivojlanishi hisobiga yillik yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sish sur'atlari 8–10% atrofida bo'layotgani kuzatilmoqda"¹. Ushbu turizm yo'nalishi orqali iqtisodiyotning xizmatlar sohasi diversifikatsiya qilinadi, mahalliy va xalqaro sarmoyalarni jalb qilish imkoniyatlari kengayadi, shuningdek, aholi salomatligini tiklash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga hissa qo'shiladi. "Rekreatsion resurslarga boy bo'lgan hududlarda dam olish va sog'lomlashtirish turizmiga yo'naltirilgan investitsiyalar nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish, balki hududiy differentsial rivojlanish muvozanatini ta'minlashga ham xizmat qilmoqda. 2030-yilgacha xalqaro turistlar yiliga dunyo bo'yicha 3,3 foizga ko'payishi prognoz qilinmoqda"². Shu bois, rekreatsiya turizmini rag'batlantirish global iqtisodiy o'sishning barqaror va inklyuziv modellarini shakllantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Jahonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish istiqbollari oid ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari ushbu turizm turining iqtisodiy samaradorligini baholash, ekologik barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanish modellarini ishlab chiqish, raqamli texnologiyalar asosida xizmatlar sifatini oshirish, demografik va ijtimoiy omillarni hisobga olgan segmentasiya strategiyalarini takomillashtirish, shuningdek, rekreasion hududlarni boshqarishning innovasion va kompleks yondashuvlarini joriy etish kabi masalalarni qamrab oladi. Shu bilan birga, global iqlim o'zgarishi, transport logistikasi, soliq va investisiya siyosati kabi tashqi omillarning ta'sirini tahlil qilish ham muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yangi O'zbekistonda ham, jahondagi singari, zamonaviy urbanizatsiya, jadallashgan hayot tarzi aholining dam olishga bo'lgan ehtiyojini oshirmoqda. Buning natijasida, rekreatsiya turizmiga talab ko'paymoqda va shu bilan birga, turli davlatlar o'zlarining sanatoriya va kurort infratuzilmasini targ'ib qilish orqali turistlarni jalb qilmoqda. Bu esa o'z navbatida, mamlakatning iqtisodiy salohiyatining oshishiga hissa qo'shadi. Turizm sohasini rivojlantirish uchun mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida, turizm eksporti hajmi 1,6 karra oshib, 3,5 mlrd dollarga yetdi, 2 mingdan ortiq yangi tadbirkorlar ish boshladi. O'zbekistonda 2024 yilda sayyohlar oqimi ilk bor

¹ UN-Tourism 2024 *World Tourism Barometer*.

² World Tourism Organization (UNWTO) *Tourism highlights report*. 2022 edition.

10 mln. dan oshdi. Sayyohlar oqimini yanada ko'paytirish maqsadida, yangi turistik yo'nalishlar hamda rekreatsiya va sog'lomlashtirish maskanlarini rivojlantirish, tog' oldi tumanlarida mehmon uylarini tashkil etish vazifalari qo'yilgan. Rekreatsiya turizmini rivojlantirish salohiyati yuqori bo'lgan respublikamizning 4 ta tog'li hududlarida turistik-rekreatsion zonalar tashkil etilishi rejalashtirilgan bo'lsa, shulardan "Chorvoq" turistik-rekreatsion zonasi, "Zomin" turistik-rekreatsion zonasi, "Ohalik – Oqbo'yro – Mironko'l" turistik-rekreatsion zonasi, "G'elon" turistik-rekreatsion zonalarini tashkil etilib, dam olish maqsadida tashrif buyurgan turistlarni qabul qilmoqda. "Farg'ona" turistik-rekreatsion zonasi hozirda tashkil etilishi rejalashtirmoqda. Ushbu chora-tadbirlar rekreatsiya turizmini rivojlantirish istiqbollari o'ldirilgan ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligi va ahamiyati oshib borayotganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2024-yil 25-sentyabrdagi PQ-335-son "O'zbekiston Respublikasida tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni madaniy rivojlantirish, innovatsion, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turizm sohasi va uning tarkibida rekreatsiya turizmini rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodologik jihatlari ko'plab xorijiy olimlar, jumladan: I. R. González, R. Manning, Hall C. M. & Page, Wang Y, Chen Y, Zhang W, Chao I.-C, LiH., K. Konstantin Kuzminyh, Regina Galkova, Yu, A, Knni, O. R. Radchenko, Eva Eylers, Hanna Sarkisian, Margaryta, Liganenko, Sheida, Golbad, Kambiz, O. Drebot singari olimlarning ishlarida alohida ahamiyat kasb etadi³. Ushbu olimlarning ishlarida rekreatsiya turizmi va rekreatsiya resurslarini nazariy jihatlari o'rganilgan.

³ I.R. González, (2023). The Impact of Health Tourism on Destinations and Attitudes of Local Residents. Advances in hospitality, tourism and the services industry (AHTSI) book series, doi: 10.4018/978-1-6684-6692-6.ch005, Manning, R. (2011). Recreation resource planning: Frameworks, techniques, and applications., Hall, C. M., & Page, 6

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlarida rekreatsiya turizmi va uni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarning nazariy jihatlarini I.F.Jukovskaya, M. V.Krasnova, O.B.Yares. M.D.Mamadiyarov, B.A.Joldasbekova, T.N.Grigorenko, L.B.Vampilova, V.G.Veledinskiy, A.M.Vetitnev, L.A.Vyatkin, Y.A. Djandjugazova, N.G.Mojayeva, V.S.Senin, Yu.M.Sharunenko, singari olimlarning tadqiqot ishlarida o'rganilgan ⁴.

Mahalliy olimlardan, A.M.Abduvohidov, A.A.Eshtayev, M.T.Aliyeva, I.Tuxliyev, S.R.Safayeva, A.N.Norchayev, X.F.Ochilova. U.Matyakubov, D.S.Umirova, A.S.Sadullayev, Z.I.Usmanova, Z.T.Abdulxakimov, M.T.Alimova, M.Z.Nurfayziyeva, N.A.Jo'rayeva, Z.S.Abriyev kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida rekreatsiya turizmiga ta'sir etuvchi omillar, rekreatsiya turizmini rivojlantirishning nazariy asoslari o'rganilgan⁵. Shunga qaramasdan, olib borilgan

S. J. (2014). Wang, Y.; Chen, Y.; Zhang, W.; Chao, I.-C.; Li, H. The Impact of Rural Tourism on Rural Culture Evidence from China. *Agriculture* 2024, 14, 2116. <https://doi.org/10.3390/agriculture14122116> Elinor, L. (2012). "Managing Outdoor Recreation: Case Studies in the National Parks". CABI Publishing., Konstantin, Kuzminyh., Regina, Galkova. (2020). Analysis of the positioning of sanatorium-resort institutions of the Republic of Bashkortostan and their promotion using innovative technologies. doi: 10.1051/E3SCONF/202020808021, E. Eylers. (2014). Planning the Nation: The Sanatorium Movement in Germany. *The Journal of Architecture*, doi: 10.1080/13602365.2014.966587, Hanna, Sarkisian., Margaryta, Liganenko., Sheida, Golbad, Kambiz. (2022). Modern determinants of consumer needs and analysis of the market of peloid therapy in SPA resorts. *Technology audit and production reserves*, doi: 10.15587/2706-5448.2022.261880., O., Drebot, Kateryna, Babikova, H., M., Oliinyk. (2022). Fundamentals of the development of tourist and recreational potential of regions. *Balanced Nature Using*, doi: 10.33730/2310-4678.1.2022.255219, Irina, F., Zhuckovskaya., Marina, V., Krasnova., O. B. Yares. (2020). On the Influence of Population Income and Foreign Exchange Rate on the Development of a Tourism-Recreational Country's and Region's Facilities. doi:10.2991/AEBMR.K.200324.070.

⁴ Fundamentals of the development of tourist and recreational potential of regions. *Balanced Nature Using*, doi: 10.33730/2310-4678.1.2022.255219, Irina, F., M.V.Zhuckovskaya, O.B.Krasnova, Yares. (2020). A.A. Жолдасбеков, М.Д.Мамадияров, Б.А.Жолдасбекова Туристско-рекреационные ресурсы как основа туристско-рекреационного потенциала // *Международный журнал экспериментального образования*. – 2013. – № 11-3. – С. 213-214; Григоренко Т.Н. Организация детского спортивно-экологического туризма на полуострове Крым // *Сервис в России и за рубежом*. 2022. Т.16. №4. С. 107–116. DOI: 10.5281/zenodo.7089409. Вампилова, Л. Б. Туристские ресурсы и туристско-рекреационное районирование Ленинградской области / Л.Б. Вампилова, М.Н. Кувардина, В.Л. Мартынов. - Москва: Мир, 2015. - 139 с. Велединский, В.Г. Спортивно-оздоровительный сервис. Учебник / В.Г. Велединский. - М.: КноРус, 2016. - 865 с. Ветитнев, А. М. Лечебный туризм / А.М. Ветитнев, А.С. Кусков. - М.: Форум, 2020. - 592 с. Управление развитием рынка лечебно-оздоровительного туризма / А.М. Ветитнев, А.А. Киселева, А.П. Конторских. - М.: ИНФРА-М, 2016. - 160 с. Вяткин, Л. А. Туризм и спортивное ориентирование / Л.А. Вяткин, Е.В. Сидорчук. - М.: Academia, 2019. - 208 с. Джанджугазова, Е. А. Туристско-рекреационное проектирование. Учебник / Е.А. Джанджугазова. - М.: Academia, 2017. - 272 с. Можаяева, Н. Г. Туристские ресурсы России. Практикум / Н.Г. Можаяева. - М.: Форум, Инфра-М, 2017. - 112 с. Сенин, В. С. Туризм. Мини-словарь / В.С. Сенин. - М.: Финансы и статистика, 2018. - 217 с. Страноведение. ОАЭ, Япония, Китай. - М.: Книгодел, 2017. - 262 с. Шаруненко, Ю. М. Рекреационный туризм / Ю.М. Шаруненко. - Москва: Огни, 2016. - 117 с. D.S.Umirova Master's Thesis Improvement of Health and Medical Tourism and Tourist-recreational Services in Uzbekistan Based on the Experience of Japanese and Other Developed Countries. *Ritsumeikan Asia Pacific University In Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Master of Science in International Cooperation Policy* June 2024.

⁵ Possibilities of tourism development in Kashkadarya region. A.M. Abduvohidov «Global science and innovations 2024: Central Asia» 1 (1), 21-25, A.N. Norchayev "Жиззах минтақасида туристик-рекреацион кластерни жорий қилишнинг ташкилий механизлари." *архив научных исследований* 2.1 (2022). D.S.Umirova "Hududiy turizmni innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida)" Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish bo'yicha yozilgan dissertatsiya, Toshkent-2022y. M.Z. Nurfayziyeva. *Tourism product (Textbook)*. –Т.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2024, 154 p. N.A.Jo'rayeva. "Hududiy agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish (Toshkent viloyati misolida)" Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish bo'yicha yozilgan dissertatsiya, Toshkent-2024y. Z.S.Abriyev "O'zbekistonda turizm salohiyatini rivojlanishtirish mexanizmlarini takomillashtirish" Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish bo'yicha yozilgan

tadqiqot ishlarida Qashqadaryo viloyatida mavjud rekreatsiya turizmi imkoniyatlari yetarli yoritib berilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Bozor raqobati sharoitida real sektor tarmoqlari hamda korxonalar rivojlanishining ilmiy metodologik asosini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qashqadaryo viloyatida rekreatsiya turizmini rivojlantirish istiqbollari bo'yicha ilmiy, amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirishning nazariy asoslarini tadqiq qilish;

O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish;

O'zbekistonda rekreatsiya maskanlari hamda sanatoriyalarni rivojlantirishda xorijiy davlatlarning yondashuvlari o'rganish;

mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda turistik va rekreatsiya hududlarning hozirgi holatini o'rganish va tahlil qilish;

Qashqadaryo viloyatida rekreatsiya turizmining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va tahlil qilish;

Qashqadaryo hududida mavjud rekreatsiya hududlarining tabiiy sharoitlarini o'rganish va tahlil qilish;

Qashqadaryo viloyatining turistik salohiyatini o'rgangan holda, hududda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilish;

Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan sanatoriyalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish yo'nalishlarini ishlab chiqish;

Qashqadaryo viloyatida rekreatsiya turizmini samarali rivojlantirish usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan sanatoriya va sog'lomlashtirish maskanlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini rekreatsiya maskanlarini rivojlantirish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy - ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

dissertatsiya, Toshkent-2023y. A.A. Eshtayev The Essence and Composition of Regional Tourist Resources: Scientific Theoretical Analysis/ International Conference on Advanced Research in Social and Economic Science (ICARSE 2022). 2023, 528-535 b, M.T.Aliyeva. (2020). Xizmat ko'rsatish soxasi tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari. *Архив научных исследований*, 1(13). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1567>, S.R.Safaeva. Problems of training specialists in the field of tourism in Uzbekistan. //Journal of innovations in economy. 2021. Vol. 4, Issue 7. Pp.28-32. X.Ф.Очилова Анализ потребности индустрии туризма в квалифицированных кадрах //Economics and Innovative Technologies. – 2023. – Т. 11. – №. 4. – С. 396-406. Matyakubov U. Matniyozov M., Government support in developing rural tourism in Uzbekistan//Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. A5. – С. 343-359. Suyunovich, Tuxliev Iskandar, and Bobur Sobirov. "Ways to increase the competitiveness of tourism services through the application of digital technologies in Uzbekistan." (2023).

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli va iqtisodiy-statistik tahlil, ijtimoiy so‘rovnoma, miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini taqqoslash tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “rekreatsiya turizmi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni aholining rekreatsiyaga bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari, rekreatsiya va sog‘lomlashtirish maskanlarida turizmni rivojlantirishga ta‘sir etuvchi ichki va tashqi omillar (mavjud infratuzilma, tabiiy resurslar, xizmatlar sifati)ni tizimli ravishda tadqiq etish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

Qashqadaryo viloyatida joylashgan “Qashqadaryo sohili” sanatoriyasining rivojlanish holati, unga bo‘lgan aholi talabining shakllanishi va xizmat ko‘rsatish samaradorligining respublikadagi boshqa sanatoriyalar bilan solishtirma hamda ekonometrik korrelyasiya tahlili asosida dam oluvchilar tashrifining 2027-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan;

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanida joylashgan G‘elon qishlog‘ining tabiiy-geografik jozibadorligi, ekologik sof muhiti va an‘anaviy hayot tarziga asoslangan holda, madaniy-ko‘ngilochar obyektlar, oilaviy dam olish maskanlari va sog‘lomlashtirish infratuzilmasini tashkil etish orqali hududga tashriflarning umum mavsumiy tavsifini shakllantirish asosida kurort zonasi tashkil etish asoslangan;

Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan sanatoriyalar va sog‘lomlashtirish tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishda sayohatchilarga mazkur maskanlarda taqdim etiladigan qulaylik va xizmat ko‘rsatish darajasini baholash orqali o‘z rekreatsion ehtiyojlarini qondirish variantlarini tanlashda yordam beruvchi “yulduz” toifasini berish mezonlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

Rekreatsiya turizmini rivojlantirish bo‘yicha nazariy asoslar ilmiy adabiyotlar va ilg‘or konseptual qarashlar asosida chuqur tahlil qilinib, ushbu yo‘nalishning mazmun va ahamiyati ochib berildi;

O‘zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish jarayoniga ta‘sir etuvchi asosiy omillar har tomonlama tahlil qilinib, ularning hududiy turizm tizimidagi ahamiyati ilmiy asosda yoritildi;

sanatoriya va kurortlarni rivojlantirishda xizmat ko‘rsatish sifati, muolaja va davolash turlari, xodimlarning kasbiy salohiyati hamda dam oluvchilarning munosabati muhim omillar sifatida o‘rganildi;

Qashqadaryo viloyatida rekreatsiya turizmini rivojlantirish bo‘yicha viloyatda foliyat yuritayotgan “Qashqadaryo sohili” sanatoriyasini respublikada faoliyat yuritayotgan boshqa sanatoriyalar bilan solishtirma tahlili amalga oshirildi hamda tahlilga muvofiq taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan nazariy, uslubiy yondashuv hamda usullarning maqsadga muvofiqligi axborotlar bazasining rasmiy manbalaridan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm

qo‘mitasining qonunchilik, me‘yoriy-uslubiy hujjatlari, shuningdek, Butun Jahon Sog‘lomlashtirish Instituti (Global Wellness Institute) ning statistika to‘plamlari va tahliliy materiallari manbalaridan olingani, hamda tegishli xulosa va takliflarning amalda sinovdan o‘tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan ma‘qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda aniqlangan rekreatsiya maskanlarini rivojlantirishning asosiy omillari, ularning xizmat ko‘rsatish sifatiga ta‘siri, mijozlarning dam olish xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojini maksimal qondirish va xizmatlarning ta‘sir darajasini oshirish bo‘yicha nazariy-uslubiy ishlanmalardan mazkur yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarining ilmiy apparatini boyitish hamda uslubiy asoslarini kengaytirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qashqadaryo viloyatida rekreatsiya turizmini rivojlantirish istiqbollari bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy, amaliy taklif hamda tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “rekreatsiya turizmi” tushunchasining iqtisodiy mazmunini aholining rekreatsiyaga bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari, rekreatsiya va sog‘lomlashtirish maskanlarida turizmni rivojlantirishga ta‘sir etuvchi ichki va tashqi omillar (mavjud infratuzilma, tabiiy resurslar, xizmatlar sifati)ni tizimli ravishda tadqiq etish nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Tourism product” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 14-iyuldagi 228-sonli buyrug‘i). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda rekreatsiya va sog‘lomlashtirish maskanlarida turizmni rivojlantirishga ta‘sir etuvchi ichki va tashqi omillar bo‘yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

Qashqadaryo viloyatida joylashgan “Qashqadaryo sohili” sanatoriyasining rivojlanish holati, unga bo‘lgan aholi talabining shakllanishi va xizmat ko‘rsatish samaradorligining respublikadagi boshqa sanatoriyalar bilan solishtirma hamda ekonometrik korrelyasiya tahlili asosida dam oluvchilar tashrifining 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi tomonidan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 27-maydagi 03-10-17-4465-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-335-son Qaroriga 1-ilova hududlarda tibbiy va sog‘lomlashirish turizmini rivojlantirish, sanatoriyalarning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha sanatoriylar faoliyatini yaxshilash imkoni yaratilgan;

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanida joylashgan G‘elon qishlog‘ining tabiiy-geografik jozibadorligi, ekologik sof muhiti va an‘anaviy hayot tarziga asoslangan holda, madaniy-ko‘ngilochar ob‘ektlar, oilaviy dam olish maskanlari va

sogʻlomlashtirish infratuzilmasini tashkil etish orqali hududga tashriflarning umum mavsumiy tavsifini shakllantirish asosida kurort zonasi tashkil etish taklifi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-dekabrda “Gʻelon” turistik-rekreatsion zonasini va xalqaro umum mavsumiy kurortini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi PQ-424-sonli Qarorida inobatga olingan (Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qoʻmitasining 2025-yil 27-maydagi 03-10-17-4465-sonli maʼlumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida respublikaning turistik salohiyatini oshirish boʻyicha islohotlarni izchil davom ettirish, togʻ va togʻ oldi hududlardagi ishga tushirilmagan mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga ekologik infratuzilma obyektlarini barpo etish hamda boshqa muhandislik infratuzilmalarini barpo etish vazifalarini amalga oshirish imkoni yaratilgan;

Qashqadaryo viloyatida faoliyat koʻrsatayotgan sanatoriyalar va sogʻlomlashtirish tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishda sayohatchilarga mazkur maskanlarda taqdim etiladigan qulaylik va xizmat koʻrsatish darajasini baholash orqali oʻz rekreatsion ehtiyojlarini qondirish variantlarini tanlashda yordam beruvchi “yulduz” toifasini berish mezonlaridan foydalanish taklifi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-sentyabrda “Oʻzbekiston Respublikasida tibbiy va sogʻlomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” gi PQ-335-son Qaroriga 1-ilovada inobatga olingan (Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qoʻmitasining 2025-yil 27-maydagi 03-10-17-4465-sonli maʼlumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlarda tibbiy va sogʻlomlashirish turizmini rivojlantirish, sanatoriylarning raqobatbardoshligini oshirish boʻyicha sanatoriylarga mehmonxonalar kabi toifa (yulduz) berish (sertifikatlashtirish) tizimini joriy qilish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy maqola, jumladan 4 ta respublika va 2 ta xalqaro OAK roʻyxatidagi jurnallarda, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 12 ta ilmiy ish eʼlon qilingan. Ularning 2 tasi respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlari materiallari toʻplamlarida, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 6 ta, jumladan, 4 tasi respublika jurnallarida va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 144 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Turizm sohasida rekreatsiya turizmini rivojlantirishning konseptual asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirishning nazariy asoslari, rekreatsiya turizmining rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar, O‘zbekistonda sanatoriya va sog‘lomlashtirish maskanlarini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqot ishi davomida ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o‘rganildi.

Rossiyalik olimlar Y. Bogomolova, A. Dovlatova, S. V. Bulatov va boshqa olimlarning rekreatsiya turizmiga bergan ta‘riflaridan kelib chiqib, “rekreatsiya turizmi bu - insonlarning o‘z ehtiyojlariga mos ravishda aqliy, ruhiy va jismoniy charchoqlardan qayta tiklanish faoliyatidir”⁶ ta‘rifi berildi. Rekreatsiya xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlar insonlarda turlicha, ya‘ni individual bo‘ladi. Rekreatsion ehtiyojlar quyidagicha namoyon bo‘lishi mumkin (1-rasm):



1-rasm. Turistik-rekreatsion ehtiyojlar tasniflanishi⁷


⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁷ Muallif ishlanmasi

Global urbanizatsiya jarayonlari bilan kechayotgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadal rivojlanishi inson salomatligiga ham ijobiy ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonning salbiy oqibatlaridan biri inson tanasining funksional imkoniyatlarining pasayishi bo'lib, uning hayotiy faoliyatining eng muhim tizimlarining buzilishiga olib keladi. Shu bilan birga, aholining kasallanishi va xavfli kasalliklarning paydo bo'lishi ko'paymoqda hamda so'nggi paytlarda inson tanasida stress, jismoniy va ruhiy charchoqning kuchayishi kuzatilmoqda.

Xalqaro Sog'lomlashtirish Institutining tahlillariga ko'ra, dunyo bozorida ko'pincha iste'molchilar tomonidan rekreatsiya turizmi tibbiy turizm bilan birlashtiriladi. Ushbu bozorlarni to'liq tushunmaslik, destinatsiyalar, davlat tashkilotlari va reklama agentliklari tomonidan atamalardan nomuvofiq foydalanish ushbu chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Ba'zida, "sog'liqni saqlash turizmi" atamasi tibbiy va sog'lomlashtirish xizmatlari va faoliyatining ko'plab turlarini - ochiq yurak jarrohligi va stomatologik yordamdan tortib, dam olish maskanlari va yoga dam olish maskanlarigacha - yanada chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Aslida, bu ikki sektor asosan alohida domenlarda ishlaydi va iste'molchilarning turli ehtiyojlarini qondiradi.⁸

Insonlarning salomatligi bilan bog'liq bo'lgan turizm turlariga quyidagilarni kirgizish mumkin (2-rasm):




2-rasm. Salomatlik bilan bog'liq turizm turlari⁹

⁸ <https://globalwellnessinstitute.org/what-is-wellness/what-is-wellness-tourism/>

⁹ Muallif ishlanmasi

Rekreatsion turizm nafaqat individual sog‘lomlashtirish vazifasini bajaradi, balki jamiyatda sog‘lom muhitni shakllantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va mehnat unumdorligini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi.



3-rasm. Butun dunyo sog‘lomlashtirish turizmi tashkilotlarining faoliyat yo‘nalishlari¹⁰

Dunyo miqyosida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish, xizmat ko‘rsatish sifatini yuksaltirish hamda davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini mustahkamlash maqsadida turli xalqaro sog‘lomlashtirish turizmi tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. 3-rasmda ushbu tashkilotlarning faoliyati yoritilgan. Mazkur tashkilotlar o‘z faoliyatida turizm va dam olish xizmatlarini birlashtirish orqali

¹⁰ Mavjud materiallar asosida muallif tomonidan jamlandi

sohaga kompleks yondashuvni amalga oshiradi. Ushbu tashkilotlarning faoliyati dunyoning turli mintaqalarida keng yoyilgan bo‘lib, ular sog‘liqni mustahkamlash, dam olish imkoniyatlarini kengaytirish va aholining turmush darajasini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Mazkur tashkilotlar dunyo miqyosida sog‘lomlashtirish turizmining rivojlanish tendensiyalarini tizimli ravishda o‘rganish va tahlil qilish bilan shug‘ullanadi. Ular yangi bozor segmentlarini aniqlash, global talab va ehtiyojlarni baholash orqali sohaga oid istiqbolli yo‘nalishlarni belgilab beradi. Shu bilan birga, sog‘lomlashtirish xizmatlarining davlatlarning iqtisodiy o‘shishi hamda ijtimoiy rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta‘sirini ilmiy asosda tadqiq etadi. Ushbu jarayon doirasida tashkilotlar sog‘lomlashtirish xizmatlarini yanada rivojlantirish, ularning sifat darajasini oshirish hamda xalqaro standartlarga moslashtirish kabi vazifalarni amalga oshiradi. Shu bilan birga ushbu tashkilotlar rekreatsiya va sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirish maqsadida malakali mutaxassislarni yetishtiradi. Ular uchun qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkil qiladi. Kadrlarning xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan va sog‘lomlashtirish sohasida universal tajribaga ega bo‘lgan xodimlarni tayyorlash maqsadida JSST standartlariga mos keluvchi dasturlarni ishlab chiqadi.

Dunyo miqyosida sog‘lomlashtirish maskanlari davlatlarda turli ko‘rinishlarda rivojlangan. Misol uchun, Britaniya davlatida an‘anaviy termal vannalar, Kanadada tabiat qo‘ynida sog‘lomlashtirish maskanlari, Germaniyada iqlim-salomatlik kurortlari, Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya davlatlarida ham o‘ziga xos bo‘lgan kurortlar va sog‘lomlashtirish markazlari faoliyat olib boradi (4-rasm):



4 -rasm. Dunyo miqyosida sog‘lomlashtirish maskanlari davlatlarda turli ko‘rinishi.¹¹

¹¹ <https://globalwellnessinstitute.org>

**O'zbekistonda sanatoriya va kurortlarni rivojlantirishda xorij
tajribasidan foydalanish ¹²**

Davlatlar	Yondashuvlari	O'zbekiston uchun qo'llash mumkin bo'lgan tajribalar
Xitoy	An'anaviy tibbiyot bilan integratsiya, Texnologik innovatsiyalar: zamonaviy diagnostika va davolash usullari bilan birga tabiiy resurslardan (termal suvlar, mineral loy) foydalanish. Davlat va xususiy sektor hamkorligi: hukumat sanatoriy va kurortlarni rivojlantirish uchun subsidiyalari ajratadi va investorlarni jalb qiladi.	An'anaviy tibbiyot (o'zbek xalq tabobati) elementlarini zamonaviy tibbiyot bilan birlashtirish. Termal suv va mineral loy resurslarini kengroq o'rganish va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish.
Yaponiya	Onsen madaniyati: issiq buloqlar (onsen) atrofida dam olish va sog'lomlashtirish xizmatlarini rivojlantirish. Ekologik turizm: Tabiatni saqlash va qayta tiklash orqali ekologik muhitni yaxshilash. Sog'lom turmush targ'iboti: Profilaktik davolash va stressni kamaytirishga qaratilgan dasturlar.	Tog'li va tog'oldi hududlarida issiq buloqlarni rivojlantirish, ekoturizmni sanatoriy xizmatlari bilan integratsiya qilish, dam olish maskanlarida stressni kamaytiruvchi dasturlarni joriy etish
Ozərbayjon tajribasi	Naftalan neftining noyob shifobaxsh xususiyatlaridan foydalanib, davolash markazlarini rivojlantirish. Mineral suv va loydan foydalanish. Termal va mineral suvlar asosida sanatoriy xizmatlarini kengaytirish. Xalqaro darajadagi mehmonxona va transport infratuzilmasi bilan kurortlarni bog'lash.	Termal va mineral suvlar bo'yicha ilmiy izlanishlarni kuchaytirish. Xorijiy turistlar uchun qulay infratuzilma yaratish.
Gruziya tajribasi	Balneologik kurortlar. Borjomi kabi balneologik kurortlar mineral suvlar asosida rivojlangan. Gruziya o'zining tabiiy resurslarini xalqaro miqyosda brendlash orqali turistlarni jalb qiladi.	Mahalliy mineral suvlarni xalqaro miqyosda targ'ib qilish. Kurortlar atrofida mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish.
Chexiya tajribasi	Mineral suv va balneoterapiya asosida yuqori darajada tashkil etilgan xizmatlar. Sanatoriylar nafaqat dam olish, balki davolash va reabilitatsiya markazlari sifatida ishlaydi. Kurortlarni saqlash va rivojlantirish uchun davlat subsidiyalari ajratiladi.	Mineral suv va balneoterapiya markazlarini jahon standartlariga moslashtirish. Tibbiy turizmni rivojlantirish uchun davlat dasturlarini yaratish

Sanatoriylar va kurortlarni rivojlantirishda dunyo bo'yicha turli davlatlarning tajribasi ularning geografik, iqtisodiy va madaniy xususiyatlariga mos ravishda shakllangan. 1-jadvalda Xitoy, Yaponiya, Ozarbayjon, Gruziya va Chexiyaning

¹² Muallif ishlanmasi

sanatoriy-kurort rivojlanishidagi asosiy yondashuvlari va ularning O‘zbekiston uchun muhim jihatlari o‘rganib chiqildi.


Ushbu davlatlarning sanatoriy-kurortlarni rivojlantirishidagi yondashuvlaridan foydalanish O‘zbekistonda ham rekreatsiya turizmi va sanatoriy-kurortlarni barqaror rivojlantirishda o‘z samarasini beradi. Buning uchun, tabiiy resurslarni aniqlab, ularni ilmiy asosda o‘rganish va targ‘ib qilish, zamonaviy tibbiy usullarni xalq tabobati bilan birlashtirish, Xitoy va Chexiya kabi sanatoriya va kurort tizimi eng yaxshi rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib borish va tajriba almashish respublikada rekreatsiya turizmini yanada rivojlantirish imkonini kengaytiradi.

Dissertatsiyaning **“Hududlarda rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanish tahlili”** deb nomlangan II bobida O‘zbekiston Respublikasining rekreatsiya hududlarining hozirgi va rivojlanganlik holati hamda Qashqadaryo viloyatida mavjud rekreatsiya hududlarining tabiiy sharoitlari tahlil qilingan. Respublikada har bir hudud o‘zining rekreatsiyon turizm salohiyati, uni rivojlantirish imkoniyatlari, va shart-sharoitlari bilan ajralib turadi. Misol tariqasida, Toshkent viloyatining tog‘li hududlari, Jizzax viloyatining Zomin va Baxmal tumanlari eko turizm, dam olish va sog‘lomlashtirish turizmi rivojlangan hududlardir. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz va Kitob tumanlari dam olish va sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirish salohiyati yuqori bo‘lgan hududlar hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqot jarayonida O‘zbekiston hududida faoliyat yuritayotgan 6 ta sanatoriya tahlil qilindi. Tanlab olingan sanatoriyalar O‘zbekiston Kasaba Uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi sanatoriyalar ya’ni, Toshkent viloyati hududida joylashgan “Botanika”, “Bo‘ston” va Toshkent shahrida joylashgan “Chinobod” sanatoriyalari, Farg‘ona viloyatida joylashgan “Chimyon”, Namangan viloyatidagi “Chortoq” sanatoriyalari va Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritadigan “Qashqadaryo sohili” sanatoriyasi o‘rganildi. Sanatoriyalarda dam oluvchilardan o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnomada 745 ta dam oluvchi ishtirok etdi. Tahlil ma’lumotlari asosida viloyat, yosh, jins, kasb, sabab, sanatoriya turi, rekreatsiya turizm maqsadi, unga yo‘llanma to‘lovi, narxining mosligi, boshqalarga tavsiya qilish kabi 9 ta sifat ko‘rsatkich (categorical data) bo‘lsa, joylashgan joy bahosi, dam oluvchilarga xizmat bahosi, ovqatlantirish xizmati bahosi va tadbirlarga munosabat bahosi kabi 4 ta raqamli ma’lumotlar (numerical data) to‘plandi.

Tanlab olingan sanatoriyalarning faoliyat ko‘rsatishi va ularda ko‘rsatilayotgan qo‘shimcha xizmatlar dam oluvchilar tomonidan sanatoriyaga bo‘lgan talabni oshishiga ham ta’sir qilishi o‘rganildi. Misol uchun, 4-rasmda dam oluvchilar tomonidan sanatoriyalarga tashrif maqsadi tahlil qilingan. Unga ko‘ra, “Bo‘ston” sanatoriyasida tadqiqot uchun o‘tkazilgan so‘rovnomada ishtirok etgan 211 kishidan 65 nafari sanatoriyaning “xizmat sifati” yaxshiligi sababli tashrif buyurganini ta’kidlashgan. Ammo, eng ko‘p ko‘rsatilgan sabab sanatoriyadagi “muolajalar” ekanligi aniqlandi. Ya’ni, 211 kishining 85 nafari aynan muolajalar sababli “Bo‘ston” sanatoriyasiga tashrif buyurgan. “Chinobod” sanatoriyasida

o'tkazilgan so'rovnomada 149 kishi respondent sifatida ishtirok etgan bo'lsa, shundan 52 kishi sanatoriyaning "xizmat sifati" yaxshi ekanligi uchun dam olishga kelganligini sabab qilib ko'rsatishgan.




4-rasm. Tanlab olingan sanatoriylarga dam oluvchilarning tashrif maqsadlari ¹³

“Botanika” sanatoriya-sida so'rovnomada ishtirok etgan 161 nafar respondentning 43 nafari sanatoriyaning “tabiati yaxshiligi” haqida fikr bildirishgan bo'lsa, 46 nafari aynan “xizmat sifati” dan mamnunligini bildirishgan. “Chortoq” sanatoriya-sida dam oluvchilar tadqiqot o'tkazilgan davrda 93 nafar bo'lgan bo'lsa, ulardan eng ko'p, ya'ni 62 nafar respondent muassasada mavjud “muolajalar” dan mamnun, ammo, 10 nafar respondent ko'rsatilayotgan “xizmat sifati” yaxshiligini belgilashgan. O'tkazilgan so'rovnomada “Qashqadaryo sohili” sanatoriya-sida jami 23 nafar respondent ishtirok etgan. Boshqa sanatoriylarga nisbatan bu muassasada dam oluvchilarning kam ekanligi “xizmat sifati”, “muolajalar” kabi sanatoriya faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi bu yerda sog'lomlashtirish turizmini rivojlanishi past ekanligidan dalolat beradi (4-rasm).

Tadqiqot jarayonida shu ma'lum bo'ldiki, ya'ni sanatoriylarda dam olayotgan dam oluvchilarning yoshi ham rekreatsiya turizmini rivojlantirishda ahamiyatli ekanligi o'rganildi. Jumladan, 20 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan guruhda 13 kishi qatnashib, bu jami 1,74% ni tashkil qiladi. 31-40 yosh guruhida 109 kishi mavjud bo'lib, bu umumiy sonining 14,63% ni tashkil qiladi. Shuningdek, 41-50 yosh oralig'ida 211 kishi mavjud bo'lib, u jami 28,32% bilan eng katta guruhga aylanadi. 51-60 yoshdagi guruh jami 31,28% ni tashkil etuvchi 233 kishidan iborat. 61-70 yosh oralig'ida esa, 152 kishi mavjud bo'lib, ularning umumiy sonining 20,40% ni tashkil qiladi. Bu shaxslar 61 yoshdan 70 yoshgacha. So'nggi 71+ guruhda 27 kishi bo'lib, bu jami 3,62% ni tashkil qiladi. Eng past ko'rsatgich 13 nafar respondent bo'lib, ular 20-30 yoshli dam oluvchilar ekanligi

¹³ Tadqiqot ishi uchun olib borilgan ijtimoiy so'rovnoma tahlili

aniqlandi. Ushbu ko'rsatgichlarga ko'ra, sanatoriyalarda yoshlar uchun jozibadorlik yetarli emas. Bu yoshdagilar sog'lomlashtirish turizmi sifatida sanatoriyalarda dam olmayptilar (5-rasm):



5- rasm. Tadqiqot uchun so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning yosh bo'yicha ko'rsatgichlari ¹⁴

Yuqorida tanlab olingan sanatoriylarning hozirgi kun holatini ekonometrik tahlil qilishda biz "Rekreatsiya turizmini rivojlantirish" deb nomlanuvchi Latent o'zgaruvchini (Unobserved variable) tuzib olishimiz lozim bo'ladi. Shu jihatdan biz so'nggi 4 ta raqamlarda jami faoliyatni baholash imkonini beruvchi xususiyatli izohlab kela oladigan mazkur latent o'zgaruvchini qator testlar orqali tuzib olamiz.

Mazkur tadqiqotda biz omil tahlili (factor analysis) usulidan foydalandik. Omil tahlili – bu o'lgangan o'zgaruvchilar o'rtasidagi asosiy bog'lanishlarni aniqlash va ma'lumotlar hajmini qisqartirish imkonini beruvchi zamonaviy statistik usul hisoblanadi. Tahlil natijalariga ko'ra, 1-omilning xos qiymati 2,720ni tashkil etdi va u umumiy dispersiyaning 68 foizini izohlab berdi. Ushbu natija mazkur omilning ma'lumotlar to'plamidagi tafovutning katta qismini tushuntirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Keyingi omillar uchun xos qiymatlar sezilarli darajada past bo'lgani sababli, faqat birinchi omil asosiy tushuntiruvchi omil sifatida saqlab qolindi. Omil yuklamalarini (factor loadings) tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, "joylashgan joy bahosi", "dam oluvchi bahosi", "ovqatlantirish bahosi" hamda "tadbirlarga munosabat bahosi" kabi o'zgaruvchilar birinchi omil bilan yuqori darajada bog'liqdir. Bu esa mazkur o'zgaruvchilarga ta'sir etuvchi umumiy latent (yashirin) omil mavjudligini anglatadi.

Shunday qilib, omil tahlili natijalari ma'lumotlar to'plamidagi asosiy farqlanishlarni birgina omil orqali izohlash mumkinligini tasdiqlaydi va turizm xizmatlari sifatini baholashda ushbu omilning yetakchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi (2-jadval):

¹⁴ Tadqiqot ishi uchun olib borilgan ijtimoiy so'rovnoma tahlili

“Rekreatsiya turizmini rivojlantirish” Latent o‘zgaruvchisini tuzish matritsasi ¹⁵

(obs=745)

Factor analysis/correlation Number of obs = 745
 Method: principal-component factors Retained factors = 1
 Rotation: (unrotated) Number of params = 4

Factor	Eigenvalue	Difference	Proportion	Cumulative
Factor1	2.720	2.234	0.680	0.680
Factor2	0.486	0.063	0.121	0.801
Factor3	0.423	0.052	0.106	0.907
Factor4	0.371	.	0.093	1.000

LR test: independent vs. saturated: $\chi^2(6) = 1168.01$ Prob> $\chi^2 = 0.0000$
 Factor loadings (pattern matrix) and unique variances

Variable	Factor1	Uniqueness
Joylashgan~y	0.833	0.306
Dam_oluvch~a	0.839	0.296
Ovqatlanti~i	0.808	0.347
Tadbirlarg~t	0.818	0.331

Pearson juft korrelatsiya testi ¹⁶

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)	(7)	(8)
(1) Rekreatsiya_tu~i	1.000							
(2) Yosh		1.000						
(3) Jins	(0.962) -0.109* (0.003)	0.074* (0.042)	1.000					
(4) Kasb	(0.127) (0.000)	-0.144* (0.000)	-0.239* (0.000)	1.000				
(5) Sanatoriya	(0.901) (0.048)	0.073* (0.043)	-0.074* (0.043)	(0.065)	1.000			
(6) Maqsad	-0.090* (0.014)	0.136* (0.000)	(0.541)	-0.084* (0.022)	(0.158)	1.000		
(7) Yollanma_tolovi	-0.117* (0.001)	(0.354)	(0.971)	(0.133)	(0.789)	(0.294)	1.000	
(8) Joylashgan_joy	0.839* (0.000)	(0.632)	-0.078* (0.034)	0.082* (0.025)	(0.376)	(0.060)	-0.124* (0.001)	1.000
(9) Ovqatlantirish~i	0.797* (0.000)	(0.671)	-0.099* (0.007)	(0.123)	(0.807)	(0.252)	-0.137* (0.000)	0.539* (0.000)
(10) Tadbirlarga_m~t	0.813* (0.000)	(0.233)	-0.084* (0.022)	(0.657)	(0.056)	-0.087* (0.017)	(0.072)	0.599* (0.000)

*** $p < 0.01$, ** $p < 0.05$, * $p < 0.1$

3-jadvalda o‘zgaruvchilar orasida qanday va qancha munosabat borligini aniqlash maqsadida biz Pearson juft korrelyatsiya koeffitsientlarini aniqladik. Unga

¹⁵ Stata dasturi yordamida qilingan tahlil. Muallif ishlanmasi

¹⁶ Stata dasturi yordamida qilingan tahlil. Muallif ishlanmasi

ko'ra, Rekreatsiya turizmi rivoji bilan joylashgan joy kuchli ijobiy korrelyatsiya (0,839*) 0,01 darajasida muhim, bu joyning qabul qilingan sifati yoki muvofiqligi rekreatsion turizm rivojlanishi bilan kuchli bog'liqligini ko'rsatadi.

Ovqatlanish kuchli ijobiy korrelyatsiya (0,797*) 0,01 darajasida sezilarli bo'lib, bu oziq-ovqat xizmatlarining yaxshilanishi rekreatsion turizm rivojlanishi bilan kuchli bog'liqligini ko'rsatadi. Sanatoriyalarda dam oluvchilarning o'tkaziladigan tadbirlarga bo'lgan munosabati ijobiy korrelyatsiya (0,813*) 0,01 darajasida muhim bo'lib, tadbirlarda muntazam ishtirok etish va rekreatsiya turizmni rivojlantirish o'rtasida kuchli bog'liqlikni ko'rsatadi.


Yosh 0,1 darajasida sezilarli zaif ijobiy korrelyatsiya (0,074*), yosh va jins o'rtasidagi kichik bog'liqlikni ko'rsatadi. Kasb 0,01 darajasida muhim bo'lgan salbiy korrelyatsiya (-0,239*), bu yoshning kasbga teskari bog'liqligini ko'rsatib, ma'lum kasblar muayyan yosh oralig'ida ko'proq tarqalganligini ko'rsatadi. Sanatoriya 0,1 darajasida sezilarli zaif salbiy korrelyatsiya (-0,074*), bu yosh va sanatoriy imtiyozlari o'rtasidagi kichik teskari aloqani ko'rsatadi. Maqsad ijobiy korrelyatsiya (0,136*) 0,01 darajasida muhim, bu yoshning tashrif maqsadi bilan ijobiy bog'liqligini ko'rsatadi. Joylashgan joy salbiy korrelyatsiya (-0,124*) 0,1 darajasida ahamiyatli bo'lib, tashrif maqsadi va joyning qabul qilingan sifati yoki muvofiqligi o'rtasidagi kichik teskari bog'liqlikni ko'rsatadi. Yosh, Joylashgan joy va Ovqatlanish xizmati kabi o'zgaruvchilar Rekreatsiya turizmining rivoji bilan kuchli ijobiy korrelyatsiyani ko'rsatadi. Boshqa o'zgaruvchilar qatorida ijobiy va salbiy bir nechta zaif korrelyatsiya mavjud bo'lib, ularning ba'zilar statistik ahamiyatga ega.

Tahlilga ko'ra, rekreatsiya turizmining rivojlanishiga yoshi, kasbi, sanatoriylardagi muolajalar, to'lov usullari va joylashuvi sezilarli darajada ta'sir qiladi. Katta yoshdagi guruhlar turizm rivojlanishiga yosh guruhlarga qaraganda ko'proq ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rekreatsiya turizmining rivojlanishiga turli kasblar sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa kasbiy maqom rekreatsion turizmni rivojlantirishda cheklovchi omil bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Joylashuvi va Chinobod kabi sanatoriylar turizmni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatsa, Chimyon kabi sanatoriylar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Dissertatsiyaning **“Qashqadaryo viloyatida rekreatsiya turizmini rivojlantirish istiqbollari”** deb nomlangan III bobida Qashqadaryo viloyatida rekreatsiya turizmini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar, Qashqadaryo viloyatida sog'lomlashtirish hamda turizm zonalarini rivojlantirish imkoniyatlari, Qashqadaryo viloyatida rekreatsiya turizmini samarali rivojlantirish hamda “Qashqadaryo sohili” sanatoriysiga dam oluvchilarning tashrifini yillar bo'yicha prognozi (2016-2027 yy.) ishlab chiqildi.

O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida sog'lomlashtirish maskanlari va sanatoriylar tashkil qilish uchun tabiiy resurslar yetarli bo'lishiga qaramasdan, ularning rivojlanish darajasi past bo'lib qolmoqda. Bunga sabab, muassasada malakali xodimlarning yetishmasligi, innovatsiyon xizmat turlarini yo'lga qo'yilmaganligi, zamonaviy dam olish va sport maskanlarining yo'qligi va ayrim binolarning ta'mir talabligi va boshqalarda ko'rinadi. Sanatoriya va

sogʻlomlashtirish maskanlarini modernizatsiya qilish jarayonida asosiy xizmatlardan tashqari xizmatlar diversifikatsiyasini yoʻlga qoʻyish orqali turistlarning tashrifini koʻpaytirish, hamda raqobatbardoshligini oshirish yoʻllari ishlab chiqildi. Bunda, rekreatsiya turizmini rivojlantirish maqsadida sanatoriyalarda sport va dam olish maskanlarini zamonaviylashtirish mehmonlarga nafaqat dam olish, balki faol dam olish imkonini beradi. Natijada dam oluvchilar sonining koʻpayishiga olib keladi (6-rasm):



6-rasm. Sanatoriya va sogʻlomlashtirish maskanlarini modernizatsiya qilish yoʻllari ¹⁷

¹⁷ Muallif ishlanmasi



7-rasm. “Qashqadaryo sohili” santoriysiga dam oluvchilarning tashrifini yillar bo‘yicha prognozi grafigi (2016-2027 yy.)¹⁸

